

ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



VOLUME 3, ISSUE 4 **2025**

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 4 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HOMEP 4

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 4



TOSHKENT-2025

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MA'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№4 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2025-4>

Бош мухаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Бош мухаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent Ma'mun Universiteti NTM

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI (INGLIZ TILI)

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Kalandarov Oybek Ruzimbayevich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Yakubov Muzaffar Kamildjanovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Samandarova Lola Sultanovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

FILOLOGIYA FANLARI (RUS TILI)

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Ruzmetov Surojbek Allaberganovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (NEMIS)

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (O'ZBEK TILI)

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,
O'zbekiston Respublikasi
Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Goncharov Yuriy Mixaylovich

Tarix fanlari doktori, professor
Altay davlat universiteti Rossiya

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent
Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),
dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyozova Mamlakat Tojiyevna

Tarix fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Urganch davlat universiteti

Xo'jamuratov Umarjon Rustamovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch pedagogika instituti

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor
Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor
Grodno davlat universiteti Belorusiya

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'gli

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Slepko Yuriy Nikolayevich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Yaroslav davlat pedagogika universiteti

Xazova Svetlana Abduraxmanovna

Psixologiya fanlari doktori, dotsent Kostroma
davlat universiteti Belorusiya

Kalandarova Madina Baxadirovna

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Nazarova Maloxat Berdiboyevna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Xudaynazarova Salomat Ruzibaevna

Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Sultanov Samandar Maxmud o'g'li

Arxeolog (tadqiqotchi pedagog)

Ma'mun Universiteti NTM

FILOLOGIYA

1. Искандарова Нодира Бахрамбековна
ВОСТОК В ЗАПАДНОМ КОНТЕКСТЕ: АДАПТАЦИЯ ОРИЕНТАЛЬНЫХ ОБРАЗОВ В
НЕМЕЦКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ XIX-XX ВЕКОВ.....7
2. Сапаева Хилола Бахромбековна
ЭКОЛОГИЯ И УТИЛИЗАЦИЯ ОТХОДОВ: СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ТЕРМИНОВ В
РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ.....14
3. Mamirova Xayriniso Komiljon qizi
BOLALAR NUTQIDA KO‘P MA’NOLI SO‘ZLARINING O‘ZLASHTIRILISHI: KOGNITIV VA
PSIXOLINGVISTIK YONDASHUVLAR.....18
4. Pulat Fozilov
INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI FIZIOLOGIK HOLAT FE’LLARINING IZOHLI
LUG‘ATLARDAGI TALQINI.....23
5. Masharipov Jakhongir Axmedovich
MORPHOLOGICAL CHALLENGES IN TRANSLATING TRANSPORT TERMINOLOGY
BETWEEN ENGLISH AND UZBEK.....28

IQTISODIYOT

1. Pirnafasov Sarvar Bardiboyevich, Sattarova Mahfuza Dilshodbekovna
MINTAQADA QULAY INVESTITSION MUHITNI SHAKLLANTIRISHNI
TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....32
2. Sattarova Dilfuza Dilshodbekovna
MINTAQADA IQTISODIYOT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHDA ISLOM MOLIVASI
TASHKIOTLARINI JALB QILISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI.....38
3. Mavlanova Barchinoy Shonazar qizi
XORAZM VILOYATI MINTAQASIDA ERKIN IQTISODIY ZONALAR SAMARADORLIGINI
OSHIRISHNING INNOVATSION YO‘NALISHLARI.....45

PEDAGOGIKA

1. Usanova Zulfiya Bozorovna
HOZIRGI INNOVATSION TA’LIM MUHITIDA PEDAGOGIK HAMKORLIKNI
RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TIZIMI (OLIY VA UMUMIY O‘RTA TA’LIM
MISOLIDA).....54

TARIX

1. Tuyev Fazliddin Erkinovich
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIGA CHET EL INVESTITSİYALARINING KIRITILISHI:
2003-2008 YILLAR ZARAFSHON VOHASI MISOLIDA.....59
2. Jumaniyazov Bekzod Ochilovich, Sabanova Nilufar Baxodir qizi
FUQAROLIK JAMIYATI TARIXIY BOSQICHLARI.....64

3. Salayev Dilshodbek Jumanazarovich TURKIY DAVLATLAR INTEGRATSIYASINING TADRIJI (EVOLYUTSIYASI) VA O'ZBEKISTONNING TASHKILOTGA A'ZO BO'LISHI.....	68
4. Xayitmuratova Zaynura G'aybullayevna QADIMGY MARKAZIY OSIYO XALQLARINING METROLOGIK TIZIMI: O'LCHOV BIRLIKLARINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI.....	73
5. Muborak Madrimovna Matyakubova XIVA XONLIGINING BOSIB OLINISHI VA UNING IQTISODIY HAYOTGA TA'SIRI.....	78
6. Xayitov Shodmon Ahmadovich MILLAT FIDOIYSI, OZODLIK VA ERKINLIKNING TOLMAS KURASHCHISI (MAHMUD XO'JA BEHBUDIYNING MA'NAVIY MEROSIGA BIR NAZAR).....	83
7. Matyaqubova Nozima Maksatbayevna QADIMGY XORAZM SUG'ORISH TIZIMLARI OQCHADARYO VA SARIQAMISHBO'YI O'ZANLARI ASOSIDA DEHQONCHILIK VA MADANIY TARAQQIYOT.....	89
8. Durdona Jamolova BUXORODA GIDLIK XIZMATINI RIVOJLANTIRISHDA TARIXIY RISOLALAR VA MATBUOT MATERIALLARINING MANBAVIY AHAMIYATI.....	93
9. Egamov Yusufboy Ergashbek o'g'li O'ZBEKISTONDA YOSHLARNING DAVLAT BOSHQARUVI VA QONUNCHILIK JARAYONLARIDA ISHTIROKINI MUSTAHKAMLASHDA YOSHLAR PARLAMENTINING O'RNI.....	98
10. Matnazarova Gulnoz Baxtiyorovna QUYI AMUDARYO HUDUDIDA NEOLIT DAVRI POLEOGEOGRAFIYASI HOLATI, O'ZLASHTIRISH BOSQICHLARI.....	103
11. Sanjarbek Davletov, Kamronbek Davlatov YANGI O'ZBEKISTON TASHQI SIYOSATIDA MINTAQAVIY INTEGRATSIYA VA HAMKORLIK.....	107
12. Salimov Matyusuf Kodirberganovich XX ASR BOSHLARIDA NIZOMIDDIN OXUN SALIMOVNING TA'LIM TIZIMIDAGI FAOLIYATI.....	111
13. O'g'iloy Erbo'tayeva Suyunovna IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA DEPORTATSIYA QILINGAN XALQLAR TAQDIRI.....	115
14. Qurbonova Sevara Sodiq qizi XORAZM VOHASIDA URUG'CHILIK JAMIYATINING GEOSIYOSIY SHAKLLANISHI.....	120
15. Сулайманова Сохиба Баходировна СУҒД ВОҲАСИНИНГ ҚАДИМГИ ПАНЧ ТАҢГАЛАРИ.....	125
16. Bahridil Ergasheva O'ZBEK XALQINING BOLA TARBIYASIGA OID USULLARI: TARIXIY-ETNOGRAFIK YONDOSHUV.....	129

Xayitov Shodmon Ahmadovich-
Buxoro davlat universiteti
Tarix fanlari doktori, professor

**MILLAT FIDOIYSI, OZODLIK VA ERKINLIKNING TOLMAS KURASHCHISI
(MAHMUDXO'JA BEHBUDIYNING MA'NAVIY MEROSIGA BIR NAZAR)**



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15362952>

ANNOTATSIYA

Maqolada Turkiston jadidchilik harakatining yetakchisi Mahmudxo'ja Behbudiyning boy ma'naviy merosi va siyosiy faoliyati, xususan, u tomonidan 1907-yilda Rossiya Davlat Dumasiga taqdim etilgan "Turkiston madaniy muxtoriyati loyihasi" va 1919-yilda yozgan "Vasiyatnoma"si tahlil qilinadi. Behbudi loyihasida Turkiston xalqlari uchun madaniy va siyosiy erkinlik, maktablar va madrasalarga mustaqillik, yer-suv taqsimotida adolat talab qilinadi. Loyiha topilgan arxiv tarixi ham yoritilgan.

Kalit so'zlari: Mahmudxo'ja Behbudi, jadidchilik, Turkiston muxtoriyati, madaniy erkinlik, siyosiy huquqlar, maktab islohoti, yer-suv masalasi, Duma, Ismoil Gaspirali, Shafiq Gaspirali, Behbudi vasiyatnomasi, ruslashtirish siyosati.

Хайитов Шодмон Ахмадович-
Бухарский государственный университет
доктор исторических наук, профессор

**ПРЕДАННЫЙ НАЦИИ, НЕУСТААННЫЙ БОРЕЦ ЗА СВОБОДУ И
НЕЗАВИСИМОСТЬ (ВЗГЛЯД НА ДУХОВНОЕ НАСЛЕДИЕ МАХМУДХОДЖИ
БЕХБУДИ)**

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется богатое духовное наследие и политическая деятельность Махмудходжи Бехбуди, лидера туркестанского джадидского движения, в частности, его "Проект культурной автономии Туркестана," представленный в Государственную Думу России в 1907 году, и его "Завещание," написанное в 1919 году. В проекте Бехбуди требуется культурная и политическая свобода для народов Туркестана, независимость школ и медресе, справедливость в распределении земли и воды. Также освещена история архива, где был найден проект.

Ключевые слова: Махмудходжа Бехбуди, джадидизм, Туркестанская автономия, культурная свобода, политические права, школьная реформа, земельно-водный вопрос, Дума, Исмаил Гаспирали, Шафика Гаспирали, завещание Бехбуди, политика русификации.

Khaitov Shadman Akhmadovich-
Bukhara State University
Doctor of Historical Sciences, Professor

A DEVOTIAN OF THE NATION, A RELIABLE FIGHTER FOR FREEDOM AND LIBERTY (A LOOK AT MAHMUDHOJA BEHBUDI'S SPIRITUAL HERITAGE)

ANNOTATION

The article analyzes the rich spiritual heritage and political activities of Mahmudhoja Behbudi, the leader of the Turkestan Jadid movement, in particular, his "Project of Cultural Autonomy of Turkestan" submitted to the State Duma of Russia in 1907 and his "Testament" written in 1919. Behbudi's project demands cultural and political freedom for the peoples of Turkestan, independence for schools and madrasas, and justice in the distribution of land and water. The history of the archive where the project was found is also covered.

Keywords: Mahmudhoja Behbudi, Jadidism, Turkestan autonomy, cultural freedom, political rights, school reform, land and water issue, Duma, Ismail Gasprinski, Shafiqa Gasprinski, Behbudi's will, Russification policy.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Turkiston jadidlarining ma'naviy otasi va birinchi muftiy martabasiga erushgan Mahmudxo'ja Behbudi (1874-1919) bugungi avlodga boy ma'naviy meros qoldirdi. Tarixga daxldor ushbu insonning asar vamaqolalari hozirgi kunda ham dolzarblik ahamiyat kasb etadi. M.Behbudi "Tanlangan asarlar" [1] to'plamidan joy olmagan publisistik va ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga molik maqolalari talaygina bo'lib, ularni izlab topish, tadqiq qilish, hozirgi zamon uchun ahamiyati ustida mulohazalar yuritish zarurati kuchaymoqda.

METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI

Ushbu maqolada M.Behbudi qalamiga mansub ikki tarixiy hujjat va bitta maqola ustida mushohada yuritishni lozim topdik. Manbaviy hujjatlar birinchisi Mahmudxo'ja Behbudi 1907-yil noyabr oyida Rossiya Davlat Dumas (Parlamenti)ga yo'llagan "Turkiston madaniyat muxtoriyati loyihasi", ikkinchisi esa, 1919-yil vafotidan 3-4 kun oldin qarshi zindonda yozgan "Vasiyatnoma" si, yana bir maqolasi esa, "Millatlar qanday taraqqiy etarlar? deb nomlanadi [5] [6].

Ma'lumki, 1917-yilga qadar Rossiya parlamenti hisoblangan Dumaga Turkistondan mahalliy va Yevropa millati vakillaridan bor-yo'g'i 12-13 ta deputat saylanib, ular "Musulmon fraksiyasi"ni tashkil etgan. Oz sonli Turkiston vakillari mazlum millatlarning huquqlarning himoya qilishga ojizlik qilardi.

Turkiston xalqlari nomidan Mahmudxo'ja Behbudi 1907-yil noyabrda Rossiya Davlat Dumasiga "Turkiston madaniy muxtoriyat" loyihasini yuborib, mazkur loyiha 25 moddadan iborat bo'lgan. Loyiha moddalaridagi masalalar tahlilidan oldin uning topilib va jamoatchilikka e'lon qilinishi bilan bog'liq ayrim jihatlar haqida fikr yuritmoqchimiz.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ma'lumki, Mahmudxo'ja Behbudi jadidchilikning "g'oyaviy otasi" Ismoil G'aspirali bilan yaqin maslakdosh va do'stona munosabatlarda bo'lgan. "Tarjimon" gazetasini muntazam o'qib borgan Mahmudxo'ja Behbudi Ismoilbek Gaspirali o'z ijodiy faoliyati namunalarini yuborib turgan ustida mulohaza yuritilayotgan loyiha asl, Behbudi qo'li bilan yozilgan nusxasi Turkiya poytaxtida Anqarada saqlangan I.G'aspirali arxividan 2001-yilda topilgan. Arxivning Anqaraga borib kelishi bir qator olimlar bilan bog'liq. 1914-yil 12-sentabrda Ismoilbek G'aspirali vafot etganidan so'ng, "Tarjimon" ni chiqarish ishlari uning o'g'li Rif'at va qizi Shafiqa (1886-1975) zimmasiga bo'lib, ular gazetasi 1918-yilga qadar, ya'ni 4 yil nashr etib turishdi [4]. 1917-1917-yillarda Turkiston, Qrim, Ozarbayjonda muhim siyosiy voqealar yuz berdi. 1917-yil Turkiston Muxtoriyati, 1917-1918-yillar Qrim-tatar muxtoriyati, 1918-1926-yillarda yashagan Ozarbayjon jumhuriyati va ularning qulatilishi tarixi ma'lum. Shafiqa Gaspirali Qrim-tatar muxtoriyati deputati edi. BU muxtoriyat tugatilgandan so'ng u 1918-yilda Ozarbayjon jumhuriyati Bosh vaziri turmush

o'rtog'i Nasibbey Yusufbeyli huzuriga (ular 1906-yilda turmush qurgandi), bolalari bilan Bakuga keldi. Lekin ko'p o'tmay 1920-yil 31-mayda Qizil armiya kuchlari Bokuga bostirib kirib Nasibbeyni o'ldirdilar. Shundan so'ng, Shafiqa Bokudagi Turkiya elchisi Mahmud Shevket Esendal yordamida otasi arxivini olib Anqaraga o'tib ketadi. U 2 farzandi bilan Anqarada 1975-yil 31-avgustgacha ya'ni vafotiga qadar yashadi. O'limidan oldin otasi arxivini turk tarixchisi (qrim-tatar millati vakili Nejip Hablemit o'g'li (1954-2002))ga taqdim etgan. Nejip Hablemit o'g'li 2002-yilda terrorchilar tomonidan shafqatsizlarcha o'ldirilgan. Uning o'limidan bir yil oldin Temurxo'ja Usmon Xo'ja o'g'li, ya'ni 2001-yilda undan Mahmudxo'ja Behbudiy dasxatiga mansub "Turkiston madaniy muxoriyati: loyihasini olgan va otasiga bag'ishlangan kitobga chop ettirgan [2]. 2001-yilda bosilgan maqolaning qisqartirilib, ixchamlashtirilgan nusxasini Temur Xo'ja 2024-yil 23-fevralda O'zbekistondagi "Jadid" gazetasida ha, e'lon qildi [3]. Mahmudxo'ja Behbudiyning "Turkiston madaniy muxoriyati" loyihasi 25 moddadan iboratligi yuqorida qayd etib o'tildi. Loyiha 2 qismdan iborat bo'lib uning 18-moddasiga qadar bo'lgan birinchi qismida Rossiya imperiyasi hukumatining Turkistonda madaniy-ma'rifiy sohalaridagi vazifalari haqida fikr yuritilgan.

Biroq Mahmudxo'ja Behbudiy 18-25 moddalarda (bu moddalar umum maktablar (18-20-moddalar), "Suv va yerlar xususida"(21-25-moddalar) siyosiy masalalar ilgari suriladi.

Loyihada aslida Turkiston xalqi uchun erkinlik va siyosiy muxtoriyat talab qilingan. Mahalliy aholi uchun bepul maktablar ochish, maktab va madrasalar hukumat nazoratidan ozod bo'lishi, ularni musulmon imlosi (arab imlosi)da o'qishiga erkinlik berish, rus alifbosini majburiy o'rgatmaslik talablar ilgari surilgan.

Agar korxona, hibsxona, askarlar qismlarida musulmon vakillar bo'lsa, ularda musulmonlardan mulla(imom-xatiblar) tayinlash, vijdon erkinligiga keng yo'l ochishi ilgari surilgan.

Musulmon maktab va madrasalari vaqf mulklari hisobiga moddiy ta'minot qilingani tufayli vaqf mulklarini qaytarish masalasi loyihadan o'rin olgan. Loyihaning 22-25-moddalarida Turkistonga Rossiya Imperiyasi markaziy guberniyalardan aholini ko'chirishni qat'iy to'xtatish, yer-mulklar, suv taqsimotida adolat o'rnatish, kelgindilarga yer-mulk berilmasligi ham ilgari surilgan. Turkistondagi yer-mulklarni turkistonliklar tasarruf qilishi zarur, deb hisoblagan Mahmudxo'ja Behbudiy. Mahmudxo'ja Behbudiyloyihai tahlil etilar ekan, mahalliy aholi talabisiz Turkistonga muhojirlar kelishiga yo'l qo'yilmasligiga alohida e'tibor berilgan. Chunki 1892-1893-yillarda Rossiyadagi dahshatli ocharchilik 1904-1905-yillarda Rossiya-Yaponiya urushi, 1905-1907-yillarda Rossiya xalqlari birinchi inqilobi oqibatlari tufayli Turkistonga ko'chirilganlar va qochoqlar oqimi kuchaygan. Natijada yer-suv munosabatlarida hukumatning adolatsiz siyosati, mahalliy aholi bilan kelgindilar o'rtasida keskin ziddiyatlar vujudga kelgandi, Rossiya imperiyasi hukumati Turkistonda mustahkam rus dehqonlari "anklavi"ni vujudga keltirish orqali o'lkani "ruslashtirish" siyosatini avj oldirgandi. Mahmudxo'ja Behbudiy bunday salbiy jarayonlarning jiddiy kuzatuvchisi sifatida Turkistondagi ekishga yaroqli yerlar rus, arman, yahudiy boylari, tadbirkorlai qo'liga o'tib borayotganligini to'la anglagan. Xonavayron bo'lib borayotgan mahalliy dehqonlar o'z yerlarining 1 tanobini arzimagan 2 ming so'mga kelgindilarga sotayotganligi, Kavkazda 1 tanob yer 30 ming so'mga ko'tarilgani haqida boshqa maqolalarida ham ogohlantirib o'tgan.

Mahmudxo'ja Behbudiyning "Turkiston madaniy muxtoriyati" loyihasi Buxoro amirligi va Xiva xonligiga tegishli bo'lmay, Turkiston general-gubernatorligidagi beshta viloyat (Sirdaryo, Farg'ona, Samarqand, Kaspiy orti, Yettisuv) hududlari uchun ilgari surilgandi. Ushbu loyihoha keyinchalik vujudga kelgan "Turkiston muxtoriyati"(1917-yil noyabr, fevral); Alash o'rda muxtoriyati(1917-1918), Qrim-tatar muxtoriyati (1917-1918), Ozarbayjon Respublikasi (1918-1920), Buxoro xalq Nozirlar sho'rosi (1920-1924), Xorazm xalq nozirlar sho'rosi (1920-1924) hukumatlari qurilishi tajribasida qo'llanildi. Ayniqsa, BXNSH va XXNSH hukumatlari konstitutsiyasida "mustaqil jumhuriyatlar" fikrini kirishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Mahmudxo'ja "Behbudiyning millatlar qanday taraqqiy etarlar?" maqolasi matnini tahlil etarkanmiz, quyidagi jihatlardan vaqif bo'lamiz. Mahmudxo'ja hajman katta bo'lmagan, mazmunan keng qamrovli ushbu maqolasida taraqqiy qilgan xalqlar (Yevropa xalqlari, rus, yahudiy, arman va

h.k.) yuksalishida ikki toifa vakillari xizmatini alohida ta'kidlaydi. Maqola birinchi jahon urushi arafasida ya'ni 1913-yil 30-iyulda "Samarqand" gazetasida e'lon qilinganini hisobga olsak, uning dolzarbligidan vaqif bo'lamiz [5].

Ilg'or mamlakatlar rivojiga u davlatlarning boylari va olimlar sababchidir. Ular vatanparvarligi va g'ayratlari bilan o'z millatlariga so'z va mablag'lari bilan xizmat etadilar.

Olimlar o'z millatining ravnaqi yo'lida yoshlarga masjidlarda pand-nasihati berib ularni axloqan tarbiyalaydilar. Maktab va madrasalarda ilm-fandan ta'lim beradilar. Matbuot orqali tashviqot yuritib odamlarni ongini o'stiradi, millatni kelajga mablag'ni ayamaslikka boylarni ishontiradilar. Shu sababli boylar yoshlar ta'lim olishlari uchun aqcha va pulni qizg'anmaydilar. Mahmudxo'ja Behbudiy buncha misolni uzoqdan qidirmay, Kavkaz, Qozon, Orenburg, Ufa musulmonlari orasidagi boylar bilan olim va ulamolarni namuna qilib ko'rsatadi. Millat taraqqiy qilishi uchun mol, aqcha, qalam va ilm birligi kerakligini mutafakkir ilgari suradi. Maqolada Turkistonda ilmsizlik hukm surayotganligi, besavod kishilar ko'payotgani alam bilan bayon etiladi. Madrasalarda diniy ilmlar bilan birga zamonaviy dunyoviy ilmlar parallel ravishda berilmas ekan, qoloqlik botqog'idan qutulish mumkinligi qayd etilgan. Jamiyatda savodxonlik va ilm-ma'rifatni rivojlantirish uchun "jamiyati hayriya", "Nashri maorif", qiroatxona (Kutubxona), to'garaklar (kurujok), Jarida, Maxalla, nashriyotlarni ko'paytirish kerak. Biroq ularni yo'lga qo'yish uchun boylar qalbida vatanparvarlik va qo'li ochiqlik, xayr-ehsonga moyillik mavjud bo'lishi maqola mazmuniga singdirildan [5].

Mahmudxo'ja Behbudiyning "Vasiyatnoma"si uning tanlangan asarlarida va shogirdi Hoji Muin Shukrulloning 1922-yil, 7-yanvarda Samarqandda bosilgan Mufti Mahmudxo'ja hazratlarining qanday shahid bo'lg'onligi va uning tomonidan yozilgan "Vasiyatnoma" maqolasida berilgan [6].

Hoji Muin Shukrulloning yuqorida nomi sher qilingan maqolasini shartli ravishda 3 qismida bo'lish mumkin.

Maqolaning birinchi qismida Mahmudxo'ja Behbudiy va hamrohlari Mardonqul Shomahmud o'g'li, Muhammadqul O'rinboy o'g'illari bilan Buxoro amirligi hududiga o'tmishi va ularning fojiali taqdirleri haqida mulohaza yuritiladi.

Mahmudxo'ja Behbudiy yo'ldoshlari bilan 1919-yil 25-martda Samarqanddan Buxoro amirligi hududiga o'tgan. Behbudiy Buxoro amirligi hududiga o'tmishning sabablari, uning qatl etilishi, qotillik qilgan shaxslar va ular taqdiri haqida bir qator maqolalar yozildi [7]. Biroq Mahmudxo'ja Behbudiy va hamrohlari qatl etilib dafn etilgan joy to'la aniqlanmay qolib ketdi. Faqat bir jihat aniqki 1917-yil 7-aprel manifesti Buxoro amirligida qabul qilinib, uni e'lon qilinishi marosimda bir nechta Turkiston taraqqiyparvarlari jumladan, Mahmudxo'ja Behbudiy ham ishtirok etgan. Buxoroning so'ngi Amir Sayid Olimxon (1880-1944 yashagan; 1910-1920 hukmronlik) barcha ishtirokchilar bilan qo'l uzatmay o'tib ketgan.

Demak, amirning ozodlik uchun kurashchi, millatparvar Mahmudxo'ja Behbudiyga husumati bo'lgan. 1908-yilda ismoilbek Gaspirali ikkinchi bor Turkistonga safar qilganida unga Mahmudxo'ja Behbudiy hamrohlik qilgan. Buxoro amirligi hududiga o'tganlarida Amir Olimxon Nasaf (Qarshi) begi bo'lgan valiahd ularni sovuq kutib olib, suhbat yarmidan hayratlanib qo'yavergan. I.G'aspirali Amir Olimxondan uning otasi Amir Abdulahad (1885-1910) hurmatini ko'rmagandi.

Hoji Muinning yozishicha, Mahmudxo'ja Behbudiy fojiali o'limi haqidagi ishonchli ma'lumot va xabarni 1921-yil mart oyida Buxoro amirligidan Samarqandga kelgan Hojimurod Xudoyberdi ism-sharifli shaxs olib kelgan. Ushbu inson Buxoroda "monarxiya qarshi to'ntarishi" sovet hukumati vakili sifatida Buxoro yeriga yuborilgan, 6-7 oy Kitob, Shahrisabz, Qarshi shaharlarida faoliyat yuritgan. U Sodiqjon ismli 17 yashar yigitdan Behbudiy o'limi haqida ma'lumot olgan. Sodiqjon Qarshi begi Tog'aybekka bir muddat mahramlik qilib yurigan va voqealarning jonli guvohi bo'lgan. Sodiqjon bilan suhbatda Hojimurod Xudoyberdi quyidagilarni aniqlangan. M.Behbudiy va hamrohlari Shahrisabzda asir olinib, ular 2 oy shu shaharda zindonda saqlanishgan, so'ngra Qarshiga olib kelinib Qarshi begi Tog'aybekka topshirilganlar.

Sodiqjon Qarshi begi M.Behbudiyni so‘roq qilib: “Sizlar na uchun qo‘lga tushdingiz?” deb so‘ragan. Behbudiylar afandilar: “Bizlar baytulloni ziyorat qilmoq uchun Samarqanddan chiqqan edik. Yo‘lda amir ma’murlari: “Sizlar jaded, kofir va “Tilchi” (ayg‘oqchi) deb bizni qo‘lga oldilar” deb javob berganlar, deb ma’lumot bergan. Ko‘p o‘tmay amirdan bekka qatl buyrug‘i kelgan. Qatl ijrosidan 3-4 kun M.Behbudiylar “Vasiyatnoma”ni yozib, ostiga o‘zi va hamrohlari qo‘llarini qo‘ydirib, zindonga kirib-chiqib yurgan Ahmad ismli yigit orqali Sodiqjonga “Vasiyatnoma” yetkazishni iltimos qilingan. “Vasiyatnoma” yozilgan uch-to‘rt kundan keyin, podshohlik bog‘i (chorbog‘)da zindonband qilingan 4 nafar kishiga o‘zlari uchun qabr qazdirilgan. Behbudiylar bilan birga Ahmad ham qatl etilishi o‘z-o‘zidan ayon. Behbudiylar va safdoshlari qatldan oldin taxorat olib namoz o‘qishiga ruxsat so‘rashgan. Biroq M.Behbudiylar hazratlarining boshi joynamoz ustida kesilgan Qarshi begi Tog‘aybek va soliq idorasi boshlig‘i Nuriddin og‘aliqu qatl qilinish boshida turishgan. Boshi birin-ketin kesilganlar o‘zlari qozgan qabrlarga ko‘milib, ular ko‘milgan qabrlar bilinmasin deb tekislab tashlangan.

Endi “Vasiyatnoma” haqida muhtasir fikr yurtsak o‘rinli bo‘lardi. “Vasiyatnoma”da Mahmudxo‘ja Behbudiylar Buxoro tuprog‘ida bandi bo‘lganligi, 2 oy 10 kundan buyon amirlik shaharlarida (Kitob, Shahrisabz, Qarshi) zindonband qilingani, asosiz tuhmatlarga qolganini bayon etadi. Vasiyatnoma jadid Munavvarlaridan Siddiqiy Aziziy, Sadridin Ayniy, Abdurauf Fitrat, Qori va Akobir Mahdum, Vadud Mahdum, Abdulqodir Shanuriy murojaat qilib yozilgan. Unda Turkiston bolalarini ilmi qilish, o‘zaro hamjihat bo‘lishi, ozodlik uchun kurashishga jadidlar da‘vat etiladi. “Vasiyatnoma”da Buxoroni amir zulmidan ozod etish, maorif va ilmni Buxoroda yuksaltirish maktablar ochish, qotillardan o‘ch olish kabi jihatlar o‘rin olgan. “Vasiyatnoma” so‘ngida uni Ahmadga berilgani eslatib o‘tilgan.

Hoji Muin maqolasining uchinchi qismida Ahmad Mahmudxo‘ja Behbudiylar ixlos qo‘yganligi, barcha ko‘rgan bilganlarini yon daftariga yozib borganligi, uni dasxatini Hojimurod Xudoyberdi ko‘chirib olganligi haqida fikr yuritadi. Shuningdek, Ahmad ma’lumotlari asosida Hojimurod uch pardali “Maorif qurbonlari” nomli pyesasini yozib, uning asosida teatr namoyish etilgan.

Sodiqjon taqdiri haqida gapirar ekan, Hoji Muin u shahrisabz, Kitob va G‘uzordagi aksilinqilobchilik harakati vaqtida 1920-yil 21-dekabrda Shahrisabzda o‘ldirildi, deb yozgan.

M.Behbudiylar qotili Nuriddin og‘aliq esa, 1923-yilda ham BXSIR hukumati soliq idorasini boshqargan. Unga “Xalq molini o‘g‘rilagani”, “M.Behbudiylar sheriklarining fojiali o‘limi”ga sababchi bo‘lgani uchun o‘lim jazosi berildi. Jazo Buxoro shahri Ark maydonida ijro etildi.

XULOSA

M.Behbudiylar ma’naviy merosidan bitta loyiha, bir maqola, birgina tarixiy hujjat hisoblangan “Vasiyatnoma” tahlili orqali bugungi kun uchun zarur va asqotadigan ko‘p tassavurga ega bo‘lish mumkin. Jadid munavvarlarining ma’naviy merosi uchinchi renesans asoslarini yaratishga ishonch bilan kirishgan xalqimizga ruh va kuch berishi isbot talab qilmaydi.

Iqtiboslar/References/Сноски

1. Behbudiylar Mahmudxo‘ja. Tanlangan asarlar/ To‘plovchi, so‘zboshi va izohlar; B.Qosimov.-3-nashri, Tuzatilgan va to‘ldirilgan.-T.: “Ma’naviyat”,2006.-280 bet. (Istiqlol qahramonlari).
2. Turkistan Yenelik Haraketleri va Ihtilaller; 1900-1924. Osman Hoca Anisina Incelemeler. Hazirlayan Timur Kocaog‘lu. Birinci ve ikinci Baski Haarlem, Hollanda. 2001; 2018.-506 S.
3. Temur Xo‘jaog‘li Muxtoriyat loyihasi //Jadid (Toshkent).2024-yil 23-fevral.-N9 (9).-B.1,6.
4. Umid Bekmuhammad “Tarjimon”ning Xorazmdagi muxbirlari/Jadid; 2024-yil 25-oktabr. N44-(44). –B.6.
5. Mahmudxo‘ja Behbudiylar. Millatlar qanday taraqqiy etarlar?// Vatandosh (AQSH). 2012-yil 25-aprel-N4(15).

6. Hoji Muin Shukrullo o'g'li. Mufti Mahmudxo'ja hazratlarining qanday shahid bo'lganligi va uning tomonidan yozilgan "Vasiyatnoma" // Vatandosh (AQSH), 2013-yil 15-yanvar. N22.-B.14.
7. Hayitov Sh.A. Mahmudxo'ja Behbudiy qotilining taqdiri // NamDU ilmiy axborotlari.- 2004.-N2.-B.19-26.

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 4 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HONEP 4

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 4

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадqiqот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000